



Methodology For Assessing The Lexical Competence Of Foreign Language Teachers Through Portfolio Technology

Makhmudova Feruza Salimdzhonovna

2nd year PhD student at Namangan State Institute of Foreign Languages
salimjanovnaferuza@gmail.com

Annotation: This article considers the methodology for using portfolio technology to assess the lexical competence of future foreign language teachers. The limitations of the traditional summative assessment system are analyzed, and the advantages of portfolio technology as an authentic and process-oriented assessment tool are shown. The study is based on the results of pedagogical observation and experiments conducted with 1st year students of the Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'hoqkhon Ibrat.

Keywords: portfolio technology, lexical competence, authentic assessment, person-oriented education, foreign language teacher.

Portfolio Texnologiyasi Orqali Chet Tili O'qituvchilari Leksik Kompetensiyasini Baholash Metodikasi

Maxmudova Feruza Salimdjonovna

Namangan Davlat Chet tillari Instituti 2-kurs tayanch doktoranti
salimjanovnaferuza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini baholashda portfolio texnologiyasidan foydalanish metodikasi ko'rib chiqiladi. An'anaviy summativ baholash tizimining cheklovlari tahlil etilgan holda, portfolio texnologiyasining autentik va jarayonga yo'naltirilgan baholash vositasi sifatidagi afzalliklari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet tillari Instituti 1-kurs talabalari bilan olib borilgan pedagogik kuzatuv va eksperiment natijalariga tayanadi.

Kalit so'zlar: portfolio texnologiyasi, leksik kompetensiya, autentik baholash, shaxsga yo'naltiruvchi ta'lim, chet tili o'qituvchisi.

Kirish

Chet tilini o'qitish amaliyotida leksik kompetensiya o'quvchining kommunikativ mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi, ya'ni til o'rganuvchining so'z boyligi va uni amalda qo'llash olish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, an'anaviy baholash tizimlari — xususan, yopiq shakldagi leksik testlar — talabning haqiqiy leksik salohiyatini, ya'ni so'zlardan muloqot jarayonida erkin foydalanish qobiliyatini to'liq aks ettira olmasligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etib kelinmoqda (Read, 2004; Alderson, 2000).

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda bu muammo yanada keskinlashadi: oliy ta'lim muassasalarida hali ham summativ baholash ustuvor bo'lib, talabning leksik rivojlanish jarayoni



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

emas, balki yakuniy natijagina hisobga olinadi. Holbuki, o'qituvchi sifatida shakllangan shaxs leksik kompetensiyani nafaqat o'zlashtirish, balki uni o'quvchilarga samarali o'rgatish uchun ham egallashi lozim.

Portfolio texnologiyasi bu talabning ma'lum vaqt davomida to'plagan ishlarini maqsadli ravishda jamlash va ular orqali o'quv jarayonini, taraqqiyotini hamda yutuqlarini ko'rsatish tizimi hisoblanadi, bu texnologiya til o'rganuvchi bugun qanday bilimga ega emas, balki aynan bir muddat oralig'ida qanday bilimlarga ega bo'ldi degan savolga javob beradi. Bu ta'lim texnologiyasi ko'p muddat talab qilishi bilan noafzalliklarga ega bo'lishi mumkin, biroq til o'rganuvchining metakognitiv o'sishi uchun juda muhim. Chet tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish hamda uni samarali baholash masalasi zamonaviy metodikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, portfolio va elektron portfolio (e-portfolio) texnologiyalarining leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni so'nggi yillarda ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan.

Portfolio metodologiyasi bo'yicha esa Liz Hamp-Lyons (2000) portfolio baholash sohasining yetakchi tadqiqotchilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U William Condon bilan hamkorlikda portfolio texnologiyasining o'quv jarayonidagi vositachilik rolini tadqiq etib, baholashning an'anaviy shakllariga muqobil yondashuv sifatida portfolio metodining afzalliklarini asoslab bergan. Elektron portfolio texnologiyasining ta'lim jarayonidagi samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda Ricky Lam (2018) e-portfolio talabalarining o'z-o'zini boshqarish va hamkorlikdagi o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Natasha Pourdana (2021) esa e-portfolio baholashining EFL talabalarining leksik rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, ushbu sohadagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga hissa qo'shgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham portfolio metodining samaradorligini tasdiqlamoqda. Jumladan, Hongyu Guo va Dandi Li (2024) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda elektron portfolio asosidagi o'qitish talabalarining leksik kompetensiyasi, til qo'llash va lug'at boyligini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, portfolio va elektron portfolio texnologiyalari talabalarining leksik kompetensiyasini shakllantirish, mustahkamlash va baholashda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bois ushbu tadqiqotda leksik kompetensiya nazariyasi hamda portfolio metodologiyasining ilmiy asoslari o'zaro integratsiyada ko'rib chiqiladi.

Biroq bu texnologiyaning O'zbekiston OTM sharoitida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini baholashdagi samaradorligi va uni shaxsga yo'naltiruvchi ta'lim paradigmasi bilan integratsiyalash metodikasi hozircha yetarli empirik asosga ega emas. Ushbu tadqiqotning maqsadi mazkur bo'shliqni to'ldirish, portfolio texnologiyasi asosida leksik kompetensiyani baholashning metodik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental jihatdan asoslashdan iborat.

NAZARIY ASOS

Leksik kompetensiya: tushuncha va tarkibiy qismlari

Leksik kompetensiya til o'rganish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchining so'z boyligini egallashi va undan amaliy nutqda samarali foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi.



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Zamonaviy tadqiqotlarda leksik kompetensiya odatda uch asosiy komponent orqali tavsiflanadi: leksik kenglik (breadth), leksik chuqurlik (depth) va leksik qo'llash qobiliyati (fluency)(Nation, 2000) Leksik kenglik o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan so'zlar sonini anglatib, uning lug'at boyligi hajmini ifodalaydi. Leksik chuqurlik esa so'zning turli ma'nolari, semantik bog'lanishlari, kollokatsiyalari hamda grammatik va pragmatik qo'llanish xususiyatlarini bilish darajasini ko'rsatadi. Shuningdek, leksik qo'llash qobiliyati o'quvchining so'zlarni tezkor, avtomatlashgan va tabiiy muloqot jarayonida o'rinli qo'llay olish ko'nikmasini anglatadi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Portfolio texnologiyasi: ta'rif va turlari

Portfolio — bu talabanning vaqt o'tishi bilan to'plagan ishlaridan iborat, maqsadli tarzda shakllantiriladigan kolleksiya bo'lib, uning o'quv jarayonidagi sa'y-harakatlari, taraqqiyoti va yutuqlarini ko'rsatadi (Paulson, Paulson & Meyer, 1991). Baholash maqsadida uch turdagi portfolio farqlanadi:

- O'quv portfoliosi (Learning portfolio) — talabanning o'quv jarayonini aks ettiradi, xatolar va ularga munosabatni o'z ichiga oladi;
- Namoyish portfoliosi (Showcase portfolio) — eng yaxshi ishlarni jamlab, yutuqlarni taqdim etadi;
- Baholash portfoliosi (Assessment portfolio) — aniq mezonlar asosida baholanadi va summativ maqsadda ishlatiladi.

Leksik kompetensiyani baholash uchun barcha uch turning elementlarini birlashtirgan gibrid model eng maqbul hisoblanadi (Cushing Weigle, 2002), chunki u jarayon va natijani bir vaqtning o'zida inobatga oladi.

Shaxsga yo'naltiruvchi ta'lim va portfolio

Shaxsga yo'naltiruvchi ta'lim (learner-centered learning) paradigmasi Rogers (1969) ishlarida asoslangan bo'lib, talabanning o'z o'qish jarayonini boshqarishi, refleksiya qilishi va o'zini baholashini markazga qo'yadi. Portfolio texnologiyasi aynan shu talablarni bajaradi: tanlash huquqi, o'z-o'zini nazorat qilish va muloqotli baholash (konferensiya, o'qituvchi-talaba suhbat) uning ajralmas qismidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet tillari Institutining 2025-2026 o'quv yilida olib borildi. Unda ingliz tili ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabalari (n=60) ishtirok etdi. Nazorat guruhi (n=30) an'anaviy test asosida, tajriba guruhi (n=30) esa portfolio texnologiyasi asosida baholandi. Tadqiqot davomiyligi — 1 semestr (5 hafta hafta).

Portfolio tuzilmasi



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Tajriba guruhida qoʻllanilgan portfolio “Til aspektlari amaliyoti” fanining leksika moduliga asoslangan holda ishlab chiqildi. Mazkur modul 10 ta asosiy mavzuni qamrab oldi: *Food, Clothes, Health and medicine, Travel and holidays, Science and technology, Social media, Politics and crime, Feelings and actions, Praising and criticising, Commenting on problematic situations*. Ushbu mavzular leksik kompetensiyani mavzuviy yondashuv asosida tizimli rivojlantirishga xizmat qildi.

Portfolio tuzilmasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat boʻldi:

Birinchidan, leksik kundalik (Vocabulary journal) orqali oʻquvchilar har bir mavzu doirasida oʻzlashtirilgan yangi leksik birliklarni tizimli ravishda qayd etib bordilar. Unda soʻzlarning kontekstual qoʻllanishi, sinonimik va antonimik munosabatlari hamda namunaviy gaplar keltirildi. Ikkinchidan, autentik matn tahlili bosqichida oʻquvchilar haqiqiy ingliz tilidagi matnlardan (maqolalar, yangiliklar va ijtimoiy diskurslar) foydalanib, leksik birliklarni semantik va pragmatik jihatdan tahlil qildilar hamda ularni mustaqil nutqda qoʻllash koʻnikmasini rivojlantirdilar. Uchinchidan, refleksiya yozuvlari orqali talabalar oʻz leksik rivojlanish jarayonini tahlil qilib, erishilgan yutuqlar, duch kelgan qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini tanqidiy baholash asosida ifodaladilar. Toʻrtinchidan, kreativ leksik topshiriqlar doirasida oʻzlashtirilgan leksik material asosida dialoglar, qisqa esselar, taqdimotlar va muammoli vaziyatlarga yoʻnaltirilgan yechimlar yaratildi. Bu esa leksik birliklarning faol nutqdagi qoʻllanishini mustahkamlashga xizmat qildi.

Baholash mezonlari

Mazkur tadqiqotda portfolio asosida baholash oʻquvchilarning leksik kompetensiyasini kompleks tarzda baholashga yoʻnaltirildi. Baholash mezonlari leksik bilimning turli aspektlarini qamrab olgan holda ishlab chiqildi va har bir koʻrsatkich 10 ballik tizim asosida baholandi.

Birinchi mezon — leksik kenglik (lexical breadth) — oʻquvchi tomonidan oʻzlashtirilgan soʻz va iboralar miqdorini aniqlashga qaratildi. Masalan, “Health and medicine” mavzusi boʻyicha talaba *symptom, diagnosis, treatment, recovery* kabi soʻzlarni faol ishlata olsa, uning leksik kengligi yuqori deb baholandi.

Ikkinchi mezon — leksik chuqurlik (lexical depth) — soʻzlarning maʼnolari va ularning oʻzaro bogʻliqligini bilish darajasini ifodalaydi. Masalan, “treatment” soʻzining faqat “davolash” emas, balki *medical treatment, alternative treatment, effective treatment* kabi kollokatsiyalarni ham bilish leksik chuqurlikning yuqori darajasini koʻrsatadi.

Uchinchi mezon — kontekstda toʻgʻri qoʻllash (contextual accuracy) — oʻquvchining soʻzlarni real vaziyatda toʻgʻri ishlatish qobiliyatini baholaydi. Masalan, “The doctor prescribed the treatment” jumlasini toʻgʻri qoʻllash, lekin “The doctor did the treatment” kabi notoʻgʻri birikmalardan qochish talab etiladi.



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

To'rtinchi mezon — refleksiya sifati (reflective ability) — o'quvchining o'z o'rganish jarayonini tahlil qilish qobiliyatini o'lchaydi. Masalan, talaba "I learned many words, but I still confuse 'symptom' and 'disease', so I need more practice" kabi tahliliy fikr bildirsa, bu yuqori refleksiya sifatini ko'rsatadi.

Beshinchi mezon — ijodiy qo'llash (creative use of lexis) — o'quvchining o'zlashtirilgan leksik birliklardan yangi matn yaratish qobiliyatini baholaydi. Masalan, "Health" mavzusida talaba o'z dialogini tuzib, *symptoms*, *recovery*, *doctor consultation* kabi so'zlarni mustaqil va tabiiy tarzda ishlatrsa, bu yuqori ijodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholandi, bu esa natijalarning aniq va obyektiv bo'lishini ta'minladi. Bundan tashqari, semestr davomida ikki marotaba o'qituvchi-talaba portfolio konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu jarayonda talabalarning portfolio ishlari muhokama qilinib, ularning leksik rivojlanish darajasi baholandi va keyingi bosqich uchun individual tavsiyalar berildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Semestr yakunida ikkala guruh talabalari bir xil standartlashtirilgan leksik test (Vocabulary Levels Test, Nation, 2001) va muloqot vazifasi yordamida tekshirildi. Quyidagi jadvalda guruhlar natijalarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. Portfolio va an'anaviy baholash natijalari taqqoslama ko'rsatkichlari

Baholash mezonlari	Portfolio (1-10)	An'anaviy test(1-10)	Farq
Leksik kenglik (range)	8.6	7.1	+1.5
Leksik chuqurlik (depth)	8.2	6.8	+1.4
Kontekstda qo'llash	8.9	6.3	+2.6
O'z-o'zini baholash	7.8	5.4	+2.4
Umumiy o'rtacha	8.4	6.4	+2.0

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, portfolio bilan baholangan tajriba guruhi barcha ko'rsatkichlarda nazorat guruhidan sezilarli darajada ustun keldi. Ayniqsa, kontekstda qo'llash (+2.6 ball) va o'z-o'zini baholash (+2.4 ball) ko'rsatkichlari bo'yicha farq statistik jihatdan muhim ($p < 0.05$) bo'ldi. Bu natija portfolio texnologiyasining prosedural leksik bilimni rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Talabalarning refleksiya esseyalarini sifat tahlili ham qo'shimcha topilmalar berdi: tajriba guruhi talabarlari o'z leksik o'sishini aniqroq anglagan, muayyan so'z guruhlarini qachon va qanday o'zlashtirganliklarini izohlashga qodir edilar. Bu metakognitiv ko'rsatkich bo'lajak o'qituvchilar uchun ayniqsa muhim.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Hamp-Lyons & Condon (2000) va Cushing Weigle (2002) xulosalari bilan uyg'un bo'lib, portfolio texnologiyasining autentik baholash vositasi sifatidagi samaradorligini O'zbekiston OTM kontekstida ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bir qator o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Birinchidan, talabalarning dastlabki qarshiligi (portfolio yuritishning nisbatan ko'proq vaqt talab etishi) kursning ikkinchi yarmida ijobiy munosabatga o'sdi — bu o'zini nazorat qilish ko'nikmasining shakllanishi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi-talaba suhbatini (portfolio conference) talabalar tomonidan eng foydali komponent sifatida baholandi, chunki u individuallashtirilgan fikr-mulohaza (feedback) imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi — namunaviy hajmning nisbatan kichikligi (n=60) va bitta universitetni qamrab olishi. Kelgusida turli mintaqalar va yo'nalishlardagi OTM bilan hamkorlikda kengroq tadqiqot o'tkazish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, portfolio texnologiyasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini baholashda an'anaviy testlarga nisbatan samaraliroq va ko'p qirrali yondashuvni ta'minlaydi. Mazkur texnologiya nafaqat bilim darajasini aniqlash, balki uni turli kontekstlarda qo'llash imkoniyatlarini ham chuqurroq ochib beradi. Shuningdek, portfolio yondashuvi talabalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularning o'z o'qish jarayonini anglash, tahlil qilish va boshqarish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ushbu texnologiya shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan uyg'un holda ishlaydi, ya'ni individuallashtirilgan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, refleksiya jarayonini faollashtiradi hamda muloqotga asoslangan baholash muhitini shakllantiradi.

Amaliy tavsiyalar: OTM o'qituvchilariga portfolio texnologiyasini leksik kompetensiyani baholashda qo'shimcha yoki asosiy vosita sifatida joriy etish tavsiya etiladi. Buning uchun: (1) semestr boshida aniq portfolio mezonlarini talabalar bilan birgalikda ishlab chiqish; (2) kamida ikki marta portfolio suhbatini o'tkazish; (3) o'z-o'zini baholash jadvallaridan muntazam foydalanish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alderson, J. C. (2000). *Assessing reading*. Cambridge University Press.
2. Cushing Weigle, S. (2002). *Assessing writing*. Cambridge University Press.
3. Hamp-Lyons, L., & Condon, W. (2000). *Assessing the portfolio: Principles for practice, theory and research*. Hampton Press.
4. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 54 May 2026

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

5. Paulson, F. L., Paulson, P. R., & Meyer, C. A. (1991). What makes a portfolio a portfolio? *Educational Leadership*, 48(5), 60–63.
6. Read, J. (2004). Plumbing the depths: How should the construct of vocabulary knowledge be defined? In B. Laufer & P. Bogaards (Eds.), *Vocabulary in a second language* (pp. 209–227). John Benjamins.
7. Rogers, C. R. (1969). *Freedom to learn: A view of what education might become*. Charles E. Merrill.
8. Schmitt, N. (2010). *Researching vocabulary: A vocabulary research manual*. Palgrave Macmillan.
9. Toshmatov, J. A. (2023). Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalar. *Xorijiy tillar*, 4(2), 45–52.
10. Yusupova, M. R., & Karimov, B. T. (2022). Shaxsga yo'naltiruvchi ta'lim texnologiyalarining samaradorligi. *Pedagogika va psixologiya*, 3(1), 78–86.